



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



### BOLANING UMRINI KITOB BILAN BEZANG!

**Amonova Hilola Furqatovna**

*Buxoro davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti talabasi*

Zamonaviy texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga chuqr kirib kelgan bugungi davrda bolalar kitobxonligini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Planshetlar, smartfonlar va televizorlar bolaning e'tiborini tezda o'ziga tortsa-da, kitobning bola tafakkuri va ruhiy dunyosiga ta'siri chuqr, barqaror va ijobjiydir. Bolalikda kitob bilan oshno bo'lgan bola hayotni ongli anglaydi, fikr yuritadi, mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rganadi. Yosh bola uchun kitob oddiy qog'ozlar to'plami emas – u cheksiz olamlarni mujassam etgan sehrli eshikdir. Bola kitob o'qish orqali notanish joylarga "sayohat" qiladi, turli xarakterdagi qahramonlar bilan tanishadi, ularning his-tuyg'ularini tushunadi. Masalan, xalq ertaklaridagi botir qahramonlar orqali u jasorat, halollik, sabr-toqat kabi fazilatlarning ahamiyatini anglaydi. Aynan shu jihatlar bolaning axloqiy va ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Olimlarning fikricha, bolaning hayotidagi dastlabki yetti yil – uning ruhiy, jismoniy va aqliy rivojlanishidagi eng faol bosqich hisoblanadi. Shu sababli, bu davrda bola bilan birga kitob o'qish, unga ertaklarni ovoz chiqarib o'qib berish yoki rasmli kitoblar bilan tanishtirish juda muhimdir. Bu nafaqat bolaning nutq boyligini oshiradi, balki ota-onha va bola o'rtasidagi emotsiyonaloqani mustahkamlaydi.

Buxoro viloyati bolalar kutubxonasida amaliyat o'tash jarayonida, bola psixikasi, ularning saviyasiga mos kitob tanlash bilan bog'liq ko'nikmalarga ega bo'ldim. Buxoro viloyat bolalar kutubxonasi Abu Ali ibn Sino nomidagi viloyat kutubxonasining bolalar bo'limi negizida 13ming kitob fondi, 836 ta kitobxon va 15 nafar kutubxonachi xodimlari bilan faoliyat olib borgan. Ushbu kutubxona 1964-yil 1-iyulida Pavlik Morozov nomi bilan tashkil topgan bo'lib, 2013-yilgacha o'tmish arxitekturasining durdonasi bo'lmish Amir Olimxon madrasasida faoliyat yuritgan. Amaliyotimning dastlabki haftasida kichik yoshdagagi 1-4-sinflar uchun mo'ljalangan bo'lim bilan tanishdim.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Bo'limda kichik yoshdagi bolalar uchun ertak kitoblar, xalq og'zaki ijodi namunalari, sarguzasht romanlar, jahon bolalar yozuvchilarining durdona asarlari mavjud. Bo'limdagi bolalar bilan ishlab, o'zimning mulohazalarim va kitobxonlikni rivojlantiruvchi bir nechta samarali usullarimni kutubxonachi xodimlar bilan o'rtoqlashdim.

### Tavsiyalar:

Har kecha uxlashdan oldin 10–15 daqiqa ertak o'qish odatini shakllantiring.

Har bir hikoya yoki ertakdan keyin savollar bering: "Senga qaysi qahramon yoqdi?", "Agar sen o'sha joyda bo'lganingda nima qilarding?"

Har oy yangi mavzudagi kitoblarni tanlang: tabiat, do'stlik, samimiyat, hayvonot olami va boshqalar.

Bola bir asarni o'qib tugatgach uni rag'batlantirish, kitobga bo'lgan mehrni yanada oshiradi, kitobxonlik madaniyati yoshlikdan rivojlanib boradi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, bolalar kitobxonligi – bu jamiyatning madaniy, axloqiy va intellektual rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillardandir. Bugun kitob o'qigan bola ertaga aqilli, vatanparvar va mas'uliyatli inson bo'lib voyaga yetadi. Kitob – bu nafaqat bilim, balki qalb tarbiyasi, dunyoqarash kengligi va insoniylik mezonidir. Shunday ekan, har bir ota-onas, ustoz va jamiyat vakilining muhim vazifasi – bolani kitob bilan do'st qilish, o'qishga mehr uyg'otish va ushbu odatni mustahkamlashdir.

